

## Alisher Navoiy asarlarida tarbiyaning kontekstual jihatlari

Muxlisa Muhammad-qizi Mamadaliyeva

Ra'no Qoraboyeva

Ilmiy maslahatchi: M.Mirzakarimova

Andijon davlat chet tillari instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ulug' mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida insonparvarlik va axloqiy tarbiya masalalari tahlil qilinadi. Adibning "Xamsa", "Mahbub ul-qulub" asarlari misolida komil insonni tarbiyalash, adolat, saxiylik va ilmga muhabbat kabi g'oyalar yoritilgan. Navoiyning pedagogik qarashlari yosh avlodni ma'naviy yetuk qilib shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslanadi. Maqolada shoir asarlaridagi insoniy qadr-qimmat va ijtimoiy adolat tamoyillari bugungi kun ta'lim jarayoni bilan uyg'un holda o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, insonparvarlik, axloqiy tarbiya, "Mahbub ul-qulub", komil inson, adolat, saxiylik, ma'naviy meros, ta'lim-tarbiya

## Contextual aspects of education in the works of Alisher Navoi

Mukhlisa Muhammad-kizi Mamadaliyeva

Ra'no Karaboyeva

Scientific advisor: M.Mirzakarimova

Andijan State Institute of Foreign Languages

**Abstract:** This article analyzes the issues of humanism and moral education in the works of the great thinker Alisher Navoi. The ideas of raising a perfect person, justice, generosity and love of knowledge are highlighted in the works of the writer "Khamsa", "Mahbub ul-qulub". The importance of Navoi's pedagogical views in the formation of the younger generation as spiritually mature is scientifically substantiated. The article studies the principles of human dignity and social justice in the poet's works in harmony with today's educational process.

**Keywords:** Alisher Navoi, humanism, moral education, "Mahbub ul-qulub", perfect person, justice, generosity, spiritual heritage, education

Insoniyat madaniyati tarixida so'z san'ati orqali inson qalbini isloh qilish, uni yuksak axloqiy cho'qqilarga ko'tarish masalasi hamisha dolzarb bo'lib kelgan. Bu borada buyuk shoir va mutafakkir, nizoimiddin Mir Alisher Navoiyning merosi alohida o'rin tutadi. Navoiy nafaqat turkiy adabiyotning asoschisi, balki

insonparvarlik (humanizm) g'oyalarini o'z asarlarining bosh g'oyasiga aylantirgan buyuk murabbiy bo'lib, uning ijodi markazida turgan inson va uning ma'naviy kamoloti masalasi bugungi kunda yoshlar tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishda fundamental asos bo'lib xizmat qilmoqda. Navoiyning pedagogik qarashlari uning har bir asarida, ayniqsa, "Xamsa" dostonlari va umrining so'ngida yozgan "Mahbub ul-qulub" asarida tizimli ravishda namoyon bo'ladi. Shoir insonni koinotning gultoji deb biladi va uning qadr-qimmatini kiygan libosi yoki boyligi bilan emas, balki ma'naviy dunyosi, axloqi va jamiyatga keltirgan foydasi bilan o'lchaydi. Alisher Navoiy uchun tarbiya - bu insonni hayvoniy sifatlardan tozalab, uni ilohiy va insoniy nur bilan to'ldirish jarayoni hisoblangan va shunday hamdir.

Mashhur navoiyshunos olim I.Haqqul o'zining "Navoiyga qaytish" kitobida ta'kidlaganidek, shoirning insonparvarlik qarashlari shunchaki nazariya emas, balki uning shaxsiy hayoti va ijtimoiy faoliyatining amaliy in'ikosidir [1,42]. Olimning qayd etishicha, Navoiy asarlarida komil inson bo'lish uchun birinchi navbatda nafsni jilovlash va o'zgalarga xizmat qilish asosiy shart sifatida ko'riladi. Darhaqiqat, Navoiyning "Odamiy ersang, demagil odami, Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami" degan misralari uning butun pedagogik va insonparvarlik falsafasining mag'zini tashkil etadi va bugungi globallashuv davrida Navoiy asarlaridagi tarbiya va insonparvarlik masalalarini o'rganish, yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada shoirning insoniy fazilatlar haqidagi o'g'itlari va ularning zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi.

"Mahbub ul-qulub" asarida axloqiy toifalar va ijtimoiy tarbiya. Alisher Navoiy o'zining pedagogik qarashlarini yakuniy xulosalar sifatida "Mahbub ul-qulub" asarida bayon etgan. Bu asar o'z davrining o'ziga xos ijtimoiy-pedagogik ensiklopediyasi bo'lib, unda jamiyatning barcha qatlamlari - shohlardan tortib dehqonlargacha bo'lgan toifalarning axloqiy qiyofasi chizib berilgan. Shoirning fikricha, insonparvarlikning asosi - o'zgalarga nafi tegishdir, shuningdek u "Yaxshi odam - odamlarga foydasi tegadigan kishidir" degan hadisga tayangan holda, inson qadrini uning ijtimoiy foydaliligi bilan belgilaydi.

Ushbu masalada navoiyshunos olim A.Qayumov o'zining "Alisher Navoiy" nomli asarida Navoiyning ijtimoiy qarashlarini yuqori baholagan, chunki uning ta'kidlashicha, Navoiy insonlarni yaxshi va yomon xulqli toifalarga ajratar ekan, yomonlikni tug'ma deb hisoblamaydi, balki uni noto'g'ri tarbiya va muhitning mahsuli sifatida ko'radi [2,78]. Shuningdek, S.Nishonova "Sharq uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyoti" kitobida Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridagi "Saxiylik", "Tavoze", "Adolat" kabi boblari yoshlarni ma'naviy poklikka yo'naltiruvchi eng mukammal dastur ekanligini qayd etadi [5,95]. O'ylaymanki, Navoiyning ushbu asari bugungi kunning korporativ etikasi va ijtimoiy munosabatlari

uchun ham poydevor bo'la oladi. Shoirning kasb egalariga, masalan, savdogarlar, hunarmandlar yoki mudarrisarga qo'ygan axloqiy talablari bugungi kunda biz intilayotgan "halollik vaktsinasi"ning o'rta asrlardagi mukammal ko'rinishidir. Navoiy uqtirganidek, har bir inson o'z kasbiga nafaqat daromad manbai, balki insonlarga xizmat qilish va ma'naviy yuksalish yo'li deb qarashi lozim.

*"Xamsa" dostonlarida komil inson va insonparvarlik ideali.* Alisher Navoiy ijodining gulto'ji hisoblangan "Xamsa" dostonlari nafaqat turkiy adabiyotning yuksak namunasi, balki insonparvarlik falsafasining mukammal pedagogik tizimidir. Ushbu bo'limda shoirning besh dostoni orqali ilgari surilgan "Komil inson" g'oyasi va uning jamiyatdagi o'rni tahlil qilinadi. Navoiy o'z qahramonlari - Farhod, Shirin, Layli, Majnun va Iskandar timsollarida insonning ruhiy qudrati, axloqiy pokligi va ijtimoiy adolatini namoyish etadi. Navoiyning insonparvarlik konsepsiyasi markazida fidoyilik ham muhim o'rinda turadi. Masalan, "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod timsoli - bu shunchaki oshiq emas, balki mehnatsevarlik, ilmga chanqoqlik va o'zgalar baxti yo'lida jonini fido qiluvchi qahramon obrazidir. Navoiy yoshlarga Farhod orqali "hunarni asrab, uni el xizmatiga sarf qilish" darsini beradi va takidlaydiki, insonparvarlikning eng yuksak cho'qqisi o'z manfaatidan kechib, el-yurt g'ami bilan yashashdir. Ushbu g'oyalarni tadqiq etgan taniqli navoiyshunos olim V.Abdullayev o'zining "O'zbek adabiyoti tarixi" asarida Navoiy "Xamsa"sining tarbiyaviy ahamiyatiga yuqori baho beradi, shuningdek u "Navoiy dostonlarida adolatli podshoh va komil inson masalasi egizak tushunchalardir." deb ham takidlab o'tadi [3,215]. Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar timsoli orqali davlatni boshqaruvchi shaxs birinchi navbatda donishmandlar o'gitiga tayanadigan, xalqparvar va insonparvar bo'lishi shartligini uqtiradi. Insonparvarlik - bu kuchsizlarga yordam berish, zulmga qarshi turish va jamiyatda adolat taroziyini o'rnatishdir.

Mening fikrim, "Xamsa" qahramonlari bugungi kun yoshlari uchun haqiqiy "modelyer" hayotiy namuna vazifasini o'tashi kerak, chunki undagi Farhodning toshni yorib suv chiqarishi - zamonaviy tilda innovatsiya va mehnatsevarlik, Iskandarning olimlar bilan kengashi esa - ilmiy asoslangan boshqaruvdir. Navoiy asarlaridagi insonparvarlik shunchaki his-tuyg'u emas, balki amaliy harakatdir. Biz ta'lim jarayonida o'quvchilarga Navoiy qahramonlarining ma'naviy jasoratini yetkazib bera olsak, ularda vatanga sadoqat va insonlarga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantira olamiz. Navoiy aytganidek, "Olam ahli bilingizki, ish emas dushmanlig', Yor bo'ling bir-biringizga, ki erur yorlig' - ish".

*Navoiy pedagogikasida ilm, odob va mehnatsevarlik uyg'unligi.* Alisher Navoiy pedagogik tizimining asosi insonni shakllantiruvchi uchta muhim ustun - ilm, odob va foydali mehnat birligiga tayanadi. Shoir nazdida ilm insonning ko'zi bo'lsa, odob uning bu ko'z bilan dunyoni qanday ko'rishi va o'zini qanday tutishini belgilovchi

mezondir. Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonida ilm-ma'rifatni zulmatdagi nurga o'xshatadi, biroq odobsiz berilgan bilimni kibr va halokat manbai deb biladi. Ushbu g'oyalarni keng tahlil qilgan pedagog olim M.Inomova o'zining "Pedagogika tarixi" asarida Navoiyning ustoz-shogird odobiga oid qarashlarini alohida ajratib ko'rsatadi [4,102]. Olimaning qayd etishicha, Navoiy shogird zimmasiga ustozning "haqqini ado etish"dek ulkan mas'uliyatni yuklaydi. Shoirning "Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila, Aylamak bo'lmas ado oning haqqin yuz ganj ila" degan o'giti bugungi kun o'qituvchilarining jamiyatdagi nufuzini belgilovchi ma'naviy qonundir. Shu bilan birga, H.Jumanov "Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari" o'quv qo'llanmasida Navoiyning mehnatsevarlikka bo'lgan munosabatini yoritadi. Jumanovning yozishicha, Navoiy uchun mehnat - insonni hayvoniy tabiatdan ajratib, uni jamiyatning faol a'zosiga aylantiruvchi yagona vositadir [6,140].

Nazarimda, Navoiyning "ilm - amali bilan go'zal" degan qarashi zamonaviy "dual ta'lim" (nazariya va amaliyot birligi) tizimi bilan hamohangdir. Biz yoshlarga faqat axborot berish bilan cheklanmasdan, ularda mehnatga nisbatan muhabbat va odob-axloq madaniyatini ham birdek shakllantirishimiz lozim. Navoiy pedagogikasi bizga shuni o'rgatadiki, ilm kishini mutaxassis qilishi mumkin, biroq faqat odob va halol mehnat uni shaxs sifatida namoyon etadi. Bugungi raqamli dunyoda "sun'iy intellect" bilan raqobatlasha oladigan yagona kuch - bu Navoiy orzu qilgan insoniy odob va ijodiy mehnatdir.

Alisher Navoiyning pedagogik va insonparvarlik merosi - asrlar o'tsa-da, o'zining tarbiyaviy quvvatini yo'qotmaydigan ulkan ma'naviy xazinadir. Mutafakkirning "Mahbub ul-qulub" asaridagi axloqiy o'gitlari, "Xamsa" dostonlaridagi komil inson ideali va ilm-ma'rifat haqidagi qarashlari yaxlit bir tizimni tashkil etadi. Bu tizimning markazida insonning qadri, uning ma'naviy erkinligi va jamiyat oldidagi mas'uliyati turadi. Navoiy ta'limotining eng muhim jihati shundaki, u axloqiy tarbiyani quruq nazariya sifatida emas, balki amaliy faoliyat, mehnat va o'zgalarga xizmat qilish orqali shakllanadigan jarayon deb biladi. Uning insonparvarlik falsafasi "el g'ami bilan yashash" tamoyiliga asoslangan bo'lib, bu bugungi kunda yoshlarda ijtimoiy daxldorlik va vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashda eng samarali vositadir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Alisher Navoiy asarlarini o'rganish va ularni ta'lim jarayoniga chuqur tatbiq etish - ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishning kafolatidir. Shoir orzu qilgan komil inson - ham zamonaviy ilmlarni egallagan, ham yuksak odob-axloqli shaxsdir. Bugungi O'zbekiston ta'lim tizimida Navoiy o'gitlaridan foydalanish uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haqqul, I. (2007). Navoiyga qaytish. Toshkent: Fan nashriyoti – 256-b. (Navoiy insonparvarligi: 42-45-betlar). Elektron manba: <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/11-adabiyotshunoslik>.
2. Madaminjonovna, M. M. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
3. Muhammaddilyor Diyorbek O'G'Li Uzoqjonov, & Maxliyoxon Madaminjonovna Mirzakarimova (2025). Atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash muammolari. Science and Education, 6 (12), 17-21.
4. Mirzakarimova, M. (2025). O 'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIAGNOSTIK TAHLILI. Scientific journal of the Fergana State University, (4), 1-1.
5. Mirzakarimova, M. (2025). Didactic Effectiveness of Teaching General Sciences with an Entrepreneurial Orientation. Journal of Institutional Research South East Asia, 23(3).
6. Uzoqjonov, M. D. O. G. L., & Mirzakarimova, M. M. (2025). Zamonaviy texnologiyalarning atrof-muhitga ta'siri. Science and Education, 6(11), 281-284.
7. El-Atrash, A., Zaki, S., Tousson, E., & Negm, M. (2022). Copper oxide nanoparticles induced liver and kidney toxicity in rat. Asian Journal of Biochemistry, Genetics and Molecular Biology, 12(4), 154-160.
8. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonov, M. D. O. G. L. (2025). Zamonaviy axborot texnologiyalariga o'tishda axborot xavfsizligi. Science and Education, 6(10), 89-93.
9. МИРЗАКАРИМОВА, М. М. (2022). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙУНАЛТИРИБ У^ ИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ.
10. Madaminjonovna, M., & Uzoqjonov, M. (2025). The possibilities of solving environmental problems through technology. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(7), 11-15.
11. Uzoqjonov, M., & Mirzakarimova, M. (2025). The role and significance of artificial intelligence in modern society. Technical Science Integrated Research, 1(6), 8-10.
12. Mirzakarimova, M., & Uzoqjonov, M. (2025). Information security in information-communication technologies. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(6), 8-11.
13. Умнов, Д. Г., Кариев, А. Д., Тешабоев, А. Ю., & Мирзакаримова, М. М. (2024). Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников. Перспективы науки и образования, (6 (72)), 420-436.

14. MADAMINJONOVNA, M. X. T. T. Y. (2022). NALTIRIB O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI. Nova. Pub, 1-128.
15. Madaminjonovna, M. M. (2024). ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE " MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(5), 51-55.
16. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi. Science and Education, 5(3), 264-269.
17. Mirzakarimova, M. M. (2024). O'qituvchining muomala madaniyati. Science and Education, 5(4), 278-282.
18. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji. Science and Education, 5(2), 224-228.
19. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari. Science and Education, 4(12), 321-324.
20. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish. Science and Education, 4(11), 78-83.
21. Mirzakarimova, M. (2023). CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (6), 410-415.
22. Мирзакаримова, М. М. (2020). Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. Science and Education, 1(4), 97-103.
23. Мирзакаримова, М. М. (2020). ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL" INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY, 1(1), 63-65.
24. Mirzakarimova, M. M. (2022). The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes. Telematique.-2022.-S, 7128-7131.
25. Мирзакаримова, М. М. (2020). Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. Science and Education, 1(4), 216-222.
26. Mirzakarimova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES. Академические исследования в современной науке, 2(8), 92-94.
27. Madaminjonovna, M. M. (2023). Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies. International Journal of Human Computing Studies, 5(3), 15-17.